


“TASDIQLAYMAN”  
“Kiberxayfsizlik markazi” DUK  
direktori  
  
O.N. Mirzayev

**“Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza”  
xizmatini ko‘rsatish  
REGLAMENTI**

**1. Xizmat tasnifi (pasporti).**

**1.1. Xizmat nomi.**

Mobil ilovaning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza.

**1.2. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot.**

“Kiberxayfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda - Markaz) ekspertiza xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga doirasidagi ishlarning ijrochisi hisoblanadi.

Yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100187, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 31-uy.

Amaldagi manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 20-uy.

Markazning rasmiy veb-sayti: [www.csec.uz](http://www.csec.uz).

**1.3. Xizmatdan foydalanuvchilar.**

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, tadbirkorlik subyektlari, jismoniy shaxslar va boshqalar (keyingi o‘rinlarda - ariza beruvchi) xizmatdan foydalanuvchilar hisoblanadi.

**1.4. Xizmat ko‘rsatish muddati.**

Xizmat ko‘rsatish muddati shartnomaga muvofiq belgilanadi.

**2. Xizmatdan foydalanuvchini xabardor qilish**

**2.1. Xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha axborot berish**

Xizmat va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha standart ma’lumotlarni quyidagi manzildan olish mumkin:

- 100125, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko‘chasi, 20-uy;
- tel.: (+99855) 502-10-10.

**2.2. So‘rov bo‘yicha ma’lumot olish.**

Shaxsan murojaat qilish orqali: ariza beruvchi xizmatdan foydalanish va to‘lov rekvizitlari, talab qilinadigan hujjatlar ro‘yxati to‘g‘risida yozma ma’lumotlarni taqdim etish doirasida barcha masalalar bo‘yicha soat 9:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishi mumkin.

Telefon qilish orqali: soat 9:00 dan 18:00 gacha katta hajmdagi ma’lumotlarni uzatishni talab qilmaydigan xizmatdan foydalanishning har qanday masalalari bo‘yicha og‘zaki maslahat, masalan, to‘lov uchun muassasaning rekvizitlari.

**2.3. Ma’lumotning mazmuni va hajmi.**

Murojaat qilgan har qanday shaxsga quyidagi ma’lumotlar taqdim etilishi

kafolatlanadi:

- xizmat ko'rsatuvchi Markazning joylashgan joyi, ish tartibi, tashrif buyuruvchilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan ro'yxatdan o'tish, murojaat etilgan kunda qabul qilish, jonli navbat va boshqalar);
- xizmatdan foydalanish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati;
- to'ldirish uchun zarur bo'lgan blankalarni olish tartibi va usuli;
- to'lov tartibi;
- xizmat ko'rsatish tartibi;
- xizmat reglamenti bilan tanishish usuli.

### **3. Xizmat ko'rsatish.**

#### **3.1. Ish vaqtি**

Ish vaqtি soat 9.00 dan 18.00 gacha. Tushlik vaqtি soat 13.00 dan 14.00 gacha.

Dam olish kunlari: shanba, yakshanba, bayram va qonunchilikda belgilangan qo'shimcha dam olish kunlari.

#### **4. Xizmat ko'rsatish tartibi.**

##### **4.1. Xizmat ko'rsatish jarayonini boshlash uchun zarur hujjatlar**

Xizmatlarni ko'rsatish jarayonini boshlash uchun ariza beruvchi ushbu Reglamentning 1-ilovasiga muvofiq shaklda Markazga ariza yuboradi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- mobil ilovani yaratish yoki modernizatsiya qilish bo'yicha texnik topshiriq (agar mavjud bo'lsa);
- mobil ilovaning pasporti;
- mobil ilovaning texnik topshiriqqa muvofiqligi to'g'risida ekspert xulosasi (agar mavjud bo'lsa).

Arizaga ilova qilingan hujjatlar ariza beruvchining imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

##### **4.2. Xizmat narxi.**

Xizmat pullik-shartnoma asosida ko'rsatiladi (ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq), xizmat narxi shartnomada kelishib olinadi.

##### **4.3. Xizmat ko'rsatish tartibi.**

Xizmat quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- xizmatdan foydalanish uchun hujjatlarni ilova qilingan holda ariza berish;
- ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini tekshirish, shuningdek shartnomani kelishish uchun yuborish;
- shartnoma tuzish;
- mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi bo'yicha ekspertizadan o'tkazish;
- aniqlangan zaiflik va kamchiliklar to'g'risida hisobot tayyorlash va yuborish;
- bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolash;
- aniqlangan zaifliklarni bartaraf etish bo'yicha ishlarni amalga oshirish, shuningdek qayta ekspertizadan o'tkazishga yuborish;
- soddalashtirilgan sxema bo'yicha qayta ekspertizadan o'tkazish (faqat bartaraf etilgan zaiflik va kamchiliklarni tekshirish).
- qayta ekspertizadan so'ng aniqlangan zaiflik va kamchiliklar bartaraf etilganlik holati aniqlanganda, ekspertiza xulosasini tayyorlash va taqdim etish.

Aks holda, keyingi ekspertiza yangi tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Xizmat ko'rsatishning har bir bosqichi ushbu Reglamentning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **4.4. Xizmat ko'rsatishni rad etish uchun asoslar**

Xizmat ko'rsatishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- xizmat ko'rsatish uchun murojaat qilgan shaxs uni olish huquqiga yoki boshqa shaxs nomidan harakat qilish vakolatiga ega emasligi;

- hujjatlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi (to'liq bo'limgan ro'yxat, noto'g'ri to'ldirish).

#### **4.5. Xizmat ko'rsatish natijasi**

Xizmat ko'rsatish natijalariga ko'ra, zaifliklar aniqlanmagan taqdirda, Markaz quyidagilar aks ettirilgan ekspertiza xulosasini taqdim etadi:

- ekspertiza o'tkazishning asosi va predmeti;
- mobil ilova bo'yicha umumiy ma'lumotlar;
- ekspertiza natijalari bo'yicha qisqacha ma'lumot.

Agar zaifliklar aniqlangan taqdirda, Markaz ariza beruvchiga aniqlangan zaifliklarning bat afsil tasnifi, shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobotni yuboradi.

#### **5. Tomonlarning javobgarligi**

Markaz quyidagilar uchun javobgar:

- mobil ilovaning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi ekspertizasi natijalarining ishonchliligi;

- mobil ilovaning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi ekspertizasi davomida olingan ma'lumotlar maxfiyligiga rioya qilish.

Ariza beruvchi quyidagilar uchun javobgardir:

- taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligiga;
- ekspertiza o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi omillarni yuzaga kelmasligiga.

#### **6. Sifatli ekspertiza o'tkazishni ta'minlash**

##### **6.1. Sifat parametrlari**

Quyidagi holatlarda xizmat ko'rsatish sifatsiz deb tan olinadi:

- agar mobil ilovaning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi ekspertizasi xizmat ko'rsatish tartibiga mos kelmasa;

- agar ariza beruvchida mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida ekspertizadan o'tkazish natijalariga asosli da'volar bo'lsa.

##### **6.2. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganligi ustidan shikoyat qilish**

Xizmatdan foydalanuvchi Markaz rahbari nomiga e'tirozlar sabablarini ko'rsatgan holda rasmiy xat bilan murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

“Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza” xizmatini ko‘rsatish reglamentiga 1-ilova

*Tashkilotning rasmiy blankasi*

-son

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK direktori

(F.I.Sh)

**Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiq  
ekspertizadan o‘tkazishga  
ARIZA**

Sizdan “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan ko‘rsatiladigan “Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza” xizmati doirasida quyidagi jadvalda keltirilgan mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiq ekspertizadan o‘tkazishingizni so‘raymiz.

*Jadval. Mobil ilova va uning  
nazorat qiymatlari ma’lumotlari.*

T/r.	Kategoriya	Izoh
1.	Mobil ilova nomi	
2.	Mobil ilova joylashgan resurs havolasi	
3.	Ilova kategoriyasi	
4.	Talqin (Versiya)	
5.	Platforma	<input type="checkbox"/> Android <input type="checkbox"/> iOS
Ariza beruvchi ma’lumotlari		
6.	Ariza beruvchi tashkilot	
7.	Ariza beruvchining rasmiy veb-sayti	
8.	Mobil ilova ishlab chiqaruvchisi	
9.	Ishlab chiqaruvchining rasmiy veb-sayti	
Ilova nazorat qiymatlari		
10.	MD5	
11.	ShA1	
12.	ShA256	

*Izoh: Yuqoridagi jadval har bir mobil ilova uchun alohida to‘ldiriladi. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar noto‘g‘ri bo‘lgan taqdirda ariza inobatga olinmaydi va bu haqida ariza yuboruvchiga xabar yuboriladi.*

1. Hujjatlar to‘plami\_\_\_\_\_ varaqda.
2. Ariza beruvchi ekspertiza o‘tkazish uchun zarur hujjatlarni taqdim etishga va sharoit yaratishga tayyor.
3. Ko‘rsatilgan xizmat uchun o‘z vaqtida to‘lov kafolatlanadi.

Tashkilot rahbari  
(lavozim)

---

imzo

Ijrochi: \_\_\_\_\_  
Tel.: \_\_\_\_\_

“Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza” xizmatini ko‘rsatish reglamentiga 2-ilova

## SHARTNOMA № \_\_\_\_ -M.

### Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish to‘g‘risida

Toshkent sh.

\_\_\_\_\_-yil “\_\_”-\_\_\_\_\_.

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK, Ustav asosida faoliyat olib boruvchi, direktor \_\_\_\_\_ shaxsida bundan keyin “Ijrochi” deb nomlanadi bir tomondan, va ikkinchi tomondan \_\_\_\_\_ nomidan \_\_\_\_\_ shaxsida, bundan keyin “Buyurtmachi” deb nomlanadi, quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzishdi (keyinchalik – **Shartnoma**).

#### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 Ijrochi – iOS/Android (*bittasi yoziladi*) operatsion tizimida ishlovchi mobil ilovasini axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligini ekspertizadan o‘tkazish xizmatini ko‘rsatadi (bundan keyin - ekspertiza).

Buyurtmachi ko‘rsatilgan xizmatlarni qabul qiladi va shartnoma bo‘yicha kelishilgan haqni to‘laydi.

1.2. Ekspertiza predmeti:

- a) ekspertiza obyekti to‘g‘risida texnik ma’lumotlar yig‘ish;
- b) mobil ilovani ishslash mexanizmini o‘rganish, yig‘ilgan ma’lumotlar tahlili, funksional vazifalari va shu kabilar;
- c) mobil ilova dasturiy kodlarini maxsus dasturiy ta’minotlar va mutaxassis tomonidan tahlili;
- d) mobil ilovani maxsus muhitlarda o’rnatish orqali funksional imkoniyatlarida zaifliklar mavjudligini o‘rganish;
- e) mobil ilova va u bilan bog‘liq resurslarga kiberxavfsizlik hujumlarini amalga oshirish imkoniyatini o‘rganish;
- f) zaifliklarni sinov tariqasida ekspluatatsiya qilib ko‘rish va zaiflikning xavflilik darajasini aniqlash;
- g) ekspertiza natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

1.3. Ekspertiza natijasi ushbu shartnomaning 1.2.-bandida ko‘rsatilgan, mobil ilovani haqiqiy holatining axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligini belgilaydigan xulosa hisoblanadi. Ekspert xulosasining birinchi nusxasi Buyurtmachiga qo‘l bilan yoki Davlat feldegerlik xizmati kanallari orqali xat bilan jo‘natiladi.

1.4. Vaziyatlar o‘zgargan taqdirda, ushbu shartnomada hisobga olinmagan qo‘srimcha ish hajmlari paydo bo‘lgan taqdirda, Tomonlar shartnomaga tegishli qo‘srimcha kelishuv tuzadilar.

1.5. Ushbu shartnomanini amalga oshirish bilan bog‘liq va Tomonlar tomonidan Buyurtmachining xarajatlari sifatida kelishilmagan barcha xarajatlar, Ijrochi xarajatlari deb hisoblanadi.

## **2. XIZMATLAR VA TO'LOV TARTIBI**

2.1. Ushbu shartnomaning narxi QQS hisobga olingan holda (*so'z bilan yoziladi*) so'm miqdorida belgilanadi. Ishchi kuchiga sarflanadigan xarajatlarning hajmi \_\_\_\_\_ (so'z bilan) kishi/ish soatini tashkil etadi, shartnoma narxi va ishlar hajmi – ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatiladi.

2.2. Hisob-kitoblar Ijrochining bankdagi hisob raqamiga to'lov topshiriqlari bilan pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

2.3. Buyurtmachi ushbu shartnoma ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni mobaynida ijrochining hisob raqamiga shartnoma miqdorining \_\_\_\_\_ foizi miqdorida oldindan haq to'laydi – \_\_\_\_\_ (*summa yozuvlarda*) so'm (QQSni hisobga olgan holda).

2.4. Ishni yakunlash natijalari bo'yicha Ijrochi Buyurtmachiga belgilangan tartibda tasdiqlangan ekspert xulosasi bilan birga ko'rsatilgan xizmatlar uchun, uni qabul qilinganligi to'g'risidagi dalolatnomani (bundan keyin - Dalolatnoma) taqdim etadi.

2.5. Ijrochi tomonidan taqdim etilgan dalolatnoma Buyurtmachi tomonidan imzolanadi. Buyurtmachi dalolatnomani imzolagan taqdirda, Ijrochi 3 (uch) bank kuni ichida Buyurtmachiga to'lash uchun hisob-kitobni va belgilangan shakldagi hisob-fakturani taqdim etishi lozim.

2.6. Ish umumiy qiymatining \_\_\_\_\_ foizi miqdorida yakuniy to'lov QQS bilan (*summa yozuvlarda*) so'mni tashkil etadi, bu hisob-faktura buyurtmachiga taqdim etilgan vaqtdan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida to'lanishi lozim.

## **3. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIKHLARI**

3.1. Buyurtmachi majbur:

- ijrochidan bajarilgan ishlarni to'liq va ushbu shartnomaga muvofiq qabul qilish, ushbu shartnomaning 2-bo'limi talablariga muvofiq ularni to'lash;

- ekspertlar guruhi qiladigan mas'ul shaxslarni belgilash va ekspertlar guruhi a'zolari bilan ekspertiza o'tkazish va o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha olib boriladigan ishlarni to'g'risida o'z xodimlariga ma'lumotlarni aniqlashtirishda tezkor yordam ko'rsatish;

- Buyurtmachining muassasasida Ijrochining kompyuter uskunalarini (noutbuklari) va boshqa jihozlaridan foydalanish uchun zarur ruxsatnomalarni berish;

- kompyuter uskunalariga to'siqsiz kirishni ta'minlash va ekspertizani to'siqsiz o'tkazish uchun shart-sharoitlar yaratish, uskunalar uchun mas'ul xodim yo'qligi, binolarga kirish kalitlari yo'qligi yoki boshqa sabablar tufayli ekspertiza jarayonining to'xtatilishiga yo'l qo'ymaslik, zarur ishlarning davomiyligiga to'sqinlik qiladigan holatlar va omillarni bartaraf etish;

- ekspertizaning barcha jarayonlarida xizmat ko'rsatish tartibiga asosan mobil ilovaning "xesh" qiymatini elektron shaklda rasmiy tartibda taqdim etish.

3.2. Buyurtmachi ekspertiza uchun dastlabki ma'lumot sifatida Ijrochiga berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqiga javobgardir.

## **4. IJROCHINING MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIKHLARI**

4.1. Ijrochi ekspertiza ishlarni shartnoma tuzilgan vaqtdagi obyektning holati to'g'risida dastlabki ma'lumotlarga muvofiq amalga oshirishni, ekspert xulosasini tuzishni va buyurtmachiga taqdim etishni o'z zimmasiga oladi.

4.2. Ijrochi Buyurtmachiga ekspert xulosasini qog'ozda (ikki nusxada) va bitta nusxasini elektron shaklda (optik vositalarda, CD/DVD/FlashUSBda buyurtmachining talabiga muvofiq) taqdim etishi shart.

4.3. Ijrochi xizmatlarning sifatlari ko'rsatilishi uchun javobgardir.

4.4. Ijrochi o'tkazilgan ekspertizaning boshlanish kuni va ekspertiza yakullangan deb hisoblangan kun oralig'ida aniqlanmagan axborot xavfsizligi zaifligi va kamchiliklari yuzasidan javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.5. Ekspertizadan o'tkazilgan mobil ilovada amalga oshirilgan integratsiyalar, ko'zda tutilmagan ruxsatlar, ro'yxatga olinmagan ulanish orqali sodir etilgan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik incidentlari uchun Ijrochi javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

## 5. EKSPERTIZA O'TKAZISH TARTIBI

5.1. Mobil ilovaning axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizasi xizmatini ko'rsatish tartibi (keyingi o'rinnarda - Xizmat ko'rsatish tartibi) Shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.2. Ko'rsatilgan xizmatlarni rasmiylashtirish va xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri mijozning obyektlarida ko'rsatishga oidligi bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish uchun Tomonlar xizmatlar ko'rsatilishi boshlanishidan oldin bittadan vakolatl shaxsni belgilaydilar.

5.3. Tomonlar bir-birlariga vakolatl shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning aloqa ma'lumotlari va telefon raqamini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar berishadi.

5.4. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri Ijrochining ish joyida amalga oshiriladi. Buyurtmachi Ijrochiga mobil ilova havolasi yoki uning binar faylini, uning boshlang'ich qiymatlarini yozma ravishda ko'rsatgan holda taqdim etadi. Agar zarurat bo'lsa, Ijrochi Buyurtmachining Toshkent shahridagi obyektlariga tashrif buyurishi mumkin.

5.5. Ijrochi mutaxassislarining ish vaqtini ichki hujjatlar bilan belgilanadi.

Ijrochining ish tartibi va mutaxassislarining soni, Ijrochi tomonidan Rejalashtirilgan ish rejsasi bajarilishini ta'minlashi kerak.

5.6. Ijrochi ushbu shartnomaning 2.3-bandida belgilangan tartibda va miqdorda Ijrochining hisob raqamiga mablag' tushgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida, shuningdek Buyurtmachining ushbu shartnomani 5.3-bandini bajarishi sharti bilan, xizmat ko'rsatishni boshlaydi.

5.7. Tomonlar elektron buxgalteriya hisobini qo'llash va elektron pochta orqali bir-biriga rasmiy hujjatlarni yuborish huquqiga ega. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan elektron pochta manzili Tomonlarning rasmiy elektron manzilidir.

Buyurtmachiing elektron pochta manzili – \_\_\_\_\_;

Ijrochining elektron pochta manzili – [info@csec.uz](mailto:info@csec.uz).

5.8. Tomonlar har kuni elektron pochtalarini tekshirishni va bir-birlaridan kelib tushgan so'rov va ma'lumotlarga zudlik bilan javob berishni o'z zimmalariga oladilar.

5.8. Ekspertiza muddati ekspertiza obyektining axborot va texnologik infratuzilmasining murakkabligini hisobga olgan holda belgilanadi, lekin 2 (ikki) oydan oshmasligi kerak.

5.9. Ijrochining yoki uning vakillarining (mutaxassislarining) iltimosiga binoan Buyurtmachi zarur hujjatlarni qog'oz shaklida taqdim etadi.

5.10. Ekspertlar tomonidan amalga oshirilgan xizmatlarning natijalari ekspert guruhining har bir a'zosi tomonidan ekspert xulosasining so'nggi sahifasida imzo qo'yish yo'li bilan rasmiylashtiriladi (tasdiqlanadi). Ijrochi ekspert xulosasini o'z arxivida Ijrochining korxonasida o'rnatilgan hujjatlar bilan ishslash tartibiga muvofiq saqlaydi.

5.11. Ekspertiza natijalari bo'yicha ekspert xulosasi Ijrochi tomonidan tasdiqlanadi va Buyurtmachiga taqdim etiladi.

5.12. Ekspertiza xulosasi Buyurtmachining mulki hisoblanadi. Ekspert guruhi a'zolari va ekspert xulosasining barcha oluvchilari uning mazmuni maxfiyligini ta'minlashi shart, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunlarida bevosita nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

5.13. Ishlarni qabul qilish Buyurtmachi tomonidan ishlarni topshirishga tayyorligi to‘g‘risida Ijrochidan xabarnoma olinganidan keyin 2 (ikki) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

5.14. Buyurtmachi tomonidan ishlarni qabul qilish Tomonlar imzolagan dalolatnama bilan rasmiylashtiriladi.

5.15. Agarda mobil ilovada kamchiliklar va zaifliklar aniqlanmagan taqdirda Shartnomaning 3.1-bandining 5-kichik bandi bajarilganda so‘ng Ekspertiza yakunlangan deb hisoblanadi. Kelgusida mobil ilovani modifikatsiya qilinishi oqibatida yuzaga kelish mumkin bo‘lgan har qanday holatlar uchun Buyurtmachi ma’sul hisoblanadi.

5.16. Agarda mobil ilovada kamchiliklar va zaifliklarni aniqlangan taqdirda Buyurtmachi Xizmat ko‘rsatish tartibining 7-bosqichiga binoan aniqlangan kamchilik va zaifliklarni bartaraf etilganligi to‘g‘risida Buyurtmachi Ijrochiga yozma ravishda ma’lum qiladi.

Ijrochi Xizmat ko‘rsatish tartibining 8-bosqichida belgilangan muddatda soddalashtirilgan sxema asosida qayta ekspertizadan o‘tkazadi, aniqlangan kamchilik va zaifliklar to‘liq bartaraf qilingan bo‘lsa, Ijrochi tomonidan Shartnomaning 3.1-bandining 5-kichik bandi bajarilgandan so‘ng Ekspertiza yakunlangan deb hisoblanadi.

## **6. XIZMAT SIFATI**

6.1. Ijrochi bajarilgan ishlarning sifatini ishni yakunlash natijalari bo‘yicha Ekspert xulosasini imzolash orqali tasdiqlaydi.

## **7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI**

7.1. Majburiyatlarni buzganlik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu shartnomaga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

7.2. Xizmat ko‘rsatish muddatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Ijrochidan har bir kun uchun kechiktirib ko‘rsatilgan xizmat narxining 0,4 % (foizi) miqdorida penya to‘lashni talab qilishga haqlidir, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

7.3. Xizmat uchun to‘lov shartlarini buzganligi uchun Ijrochi Buyurtmachidan kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 % (foizi) miqdorida penya to‘lashni talab qilishga haqli, ammo bu penya kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi lozim.

7.4. Ushbu shartnomaning shartlari, unga qo‘sishimcha kelishuvlar va shartnomaga muvofiq tomonlar olgan boshqa ma’lumotlar maxfiydir va oshkor etilishi mumkin emas.

7.5. Buyurtmachining tashabbusi bilan shartnomaga bekor qilingan taqdirda, bajarilgan ish uchun to‘lovnii Buyurtmachi tomonidan Ijrochining amalda qilingan xarajatlari bo‘yicha, shartnomaga bekor qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

7.6. Ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan boshqa barcha javobgarlik turlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

## **8. SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH**

8.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o‘zgartirish va qo‘sishimchalar yozma ravishda tuziladi va ikkala Tomon imzolagan bo‘lsa qonuniy kuchga ega bo‘ladi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bilan yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

8.3. Buyurtmachi shartnomani muddatidan oldin bekor qilgan taqdirda, Ijrochiga ushbu shartnomaga bo‘yicha Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishning bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmiga mos keladigan qiymati to‘lanadi.

8.4. Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 2.3-bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilmaganda Ijrochi 10 ish kuni muddatida Buyurtmachini bu haqida ogohlantirib shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

8.5. Shartnomani bekor qilingan sanasi deb, Ijrochi tomonidan shartnoma bekor qilinganligi to'g'risida xabarnomani olgan sana hisoblanadi.

## **9. FORS MAJOR**

9.1. Tomonlarning nazoratidan tashqari hollarda, fors-major harakatlari natijasida, ya'ni toshqinlar, pandemiya (karantin), zilzilalar, ish tashlashlar, urush yoki boshqa holatlar natijasida shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

9.2. Agar bunday holatlardan biri to'g'ridan-to'g'ri shartnomada belgilangan muddatlarda majburiyatlarning bajarilmasligiga olib kelgan bo'lsa, unda ushbu shartlar tegishli holatlar davomiyligi davomiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

9.3. Agar ushbu holatlar 2 (ikki) kalendar oydan ko'proq davom etsa, unda Tomonlarning har biri ushbu shartnomani bajarish imkoniyati yo'qligi munosabati bilan uni bekor qilish tashabbusi bilan chiqishga haqli. Tomonlar shartnomani ko'rsatilgan asoslarga ko'ra bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Tomonlarning hech biri kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni qoplash huquqiga ega bo'lmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Tomon zudlik bilan, lekin yengib bo'lmas holatlar yuzaga kelganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay, boshqa Tomonni vakolatli organlar tomonidan berilgan asoslovchi hujjatlarni taqdim etgan holda yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

9.5. Favqulodda-vaziyat holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida xabar bermaslik yoki o'z vaqtida xabar bermaslik Tomonni yuqoridagi holatlardan birini majburiyatni bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida ko'rsatish huquqidan mahrum qiladi.

## **10. MAXFIYLIK**

10.1. Tomonlar, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va ulardan foydalanmaslik majburiyatini oladilar, shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida ishlatish bundan mustasno.

Tomonlardan har biri maxfiy ma'lumotlarni oluvchi va uzatuvchi tomon sifatida ishtirok etishi mumkin.

10.2. Shartnomaning barcha shartlari uchinchi shaxslar uchun maxfiy ma'lumotlar bo'lib, tomonlarning o'zaro rozilgisiz oshkor etilishi mumkin emas.

Tomonlar, shuningdek, Shartnomani bajarish paytida o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday axborot va ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va boshqalarga o'tkazmaslik (boshqa yo'l bilan taqdim etmaslik) majburiyatini oladilar.

10.3. Maxfiy ma'lumotlarni oladigan Tomon uzatuvchi Tomondan olingan maxfiy ma'lumotlarni saqlash majburiyatini olmaydi, agar:

- ma'lumotlar maxfiy hisoblanmasa;
- ma'lumotlar oshkor qilingan sanada qabul qiluvchi tomonning aybisiz oshkor qilingan bo'lsa;
- maxfiy ma'lumotlar qonunchilikka binoan yoki sudlarning yoxud boshqa vakolatli davlat organlarining qaroriga binoan oshkor etilishi lozim bo'lsa (agar qabul qiluvchi tomon ushbu ma'lumotni topshirishdan oldin topshiruvchi tomonga yozma bildirishnomha yuborish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarini amalga oshirishi sharti bilan);
- ma'lumotlar uni oshkor qilish paytida tarqatish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxsdan olingan bo'lsa.

10.4. Maxfiy ma'lumotlar vakolatli davlat organlariga ularning iltimosiga binoan, boshqa Tomonni ushbu haqda darhol xabardor qilish sharti bilan taqdim etilishi mumkin, bu uni oshkor qilish uchun javobgarlikni keltirib chiqarmaydi.

10.5. Qabul qiluvchi Tomonga topshirilgan barcha hujjatlar (axborotni yetkazishning usulidan qat'i nazar), shu jumladan maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nusxalari, ulardan foydalanish tugagandan so'ng yoki uzatuvchi Tomonning tegishli iltimosiga binoan darhol (besh kundan kechiktirmasdan) topshirayotgan Tomonga qaytarilganda.

10.6. Maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish, uning maxfiyligi yo'qolgunga qadar amalga oshiriladi.

## **11. NIZOLARNI HAL QILISH**

11.1. Shartnomadan kelib chiqadigan nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha talabnama yuborish tartibi tomonlar uchun majburiydir.

11.2. Talabnomalar tomonlarga kuryer yoki ro'yxatdan o'tgan pochta orqali Tomonlar joylashgan joyda qabul qilinganligi to'g'risida qayta xabarnoma yuborish yo'li bilan topshiriladi.

11.3. Talabnomani ko'rib chiqish muddati olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni hisoblanadi.

11.4. Tomonlarning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan yuzaga kelgan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

11.5. Tomonlarning Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi munosabati bilan yuzaga kelgan hal qilinmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.

## **12. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR**

12.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari harakatlarga ta'sir qilish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita har qanday pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar yoki ushbu shaxslarning har qanday noqonuniy afzalliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun qarorlar qabul qilmaydilar.

12.2. Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ushbu Shartnoma maqsadlarida qo'llaniladigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik kabi harakatlarni amalga oshirmaydilar, shuningdek, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvish) qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlar sodir etmaydilar.

Ushbu Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi.

12.3. Agar Tomonlardan biri joriy shartnoma bo'limlarining har qanday qoidalari buzilgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma xabarnomada Tomon Shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalari buzilganligini yoki sodir bo'lishi mumkinligini ishonchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi shart. Yozma bildirishnomasi yuborilgandan so'ng, tegishli Tomon boshqa Tomon tomonidan buzilish sodir bo'lmagan yoki ro'y bermasligi to'g'risida tasdiqlanmaguncha ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiqnomasi yozma xabar olingan kundan boshlab o'n ish kuni ichida yuborilishi kerak.

12.4. Ushbu Shartnoma Tomonlar korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tartib-qoidalari o'tkazilishini tan oladilar va ularga rioya etilishini nazorat qiladilar. Shu bilan birga, Tomonlar korrupsiya faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik

munosabatlari xavfini minimallashtirish uchun oqilona sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish uchun bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatadilar. Shu bilan birga, Tomonlar tomonlarni korruption faoliyatga jalg qilish xavfining oldini olish maqsadida tekshirishlar o'tkazish tartib-qoidalarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

12.5. Tomonlar ushbu Sharhnomani bajarish doirasida taqdim etilgan faktlar bo'yicha konfidensiallik tamoyillariga rioya qilgan holda tegishli jarayonning amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lган ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarini qo'llashni kafolatlaydi.

Tomonlar Sharhnomaning ushbu bo'limi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, umuman so'ragan Tomon uchun ham, so'rov yuborayotgan Tomonning qonunbuzarliklar fakti to'g'risida xabar bergan alohida xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar bo'lmasligini kafolatlaydi.

12.6. Xodimning uni rag'batlantirgan tomon foydasiga amalga oshirgan xatti-harakatlari quydagicha tushuniladi:

- boshqa kontragentlarga nisbatan asossiz ustunliklar berish;
- har qanday kafolatlar berish;
- amaldagi tartiblarni tezlashtirish;
- xodim tomonidan o'z mehnat vazifalari doirasida amalga oshirilgan, biroq Tomonlar o'rtaсидаги munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid keladigan boshqa harakatlar.

12.7. Agar Tomonlardan biri Sharhnomaning ushbu bo'limida taqilangan harakatlardan voz kechish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzsa va/yoki boshqa Tomon ushbu Sharhnomada ko'rsatilgan muddatda buzilish sodir bo'limgani yoki ro'y bermasligi to'g'risida tasdiqnomasi olmasa, boshqa Tomon O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharhnomani bekor qilishi mumkin. Ushbu Sharhnomada Sharhnomaning ushbu bo'limi qoidalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, tashabbusi bilan bekor qilingan tomon, bunday bekor qilish natijasida etkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

### **13. BOSHQA SHARTLAR**

13.1. Ushbu sharhnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va har ikki tomonidan imzolangan bo'lsa, qonuniy kuchga ega va sharhnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

13.2. Ushbu Sharhnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismidir.

13.3. Tomonlardan birining yuridik manzili, rekvizitlari o'zgarganda tomonlar 3 (uch) kalender kun ichida tegishli o'zgarishlar to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladilar.

13.4. Hujjatlarni taqdim etishda hujjatlarni qabul qilish vaqtini quydagicha belgilanadi:

- pochta tashkiloti tomonidan hujjatlarni yuborishda - qabul qilinganligi to'g'risida pochta xabarnomasiga muvofiq qabul qilingan sana;
- to'g'ridan-to'g'ri topshirilganda - vakolatli vakil hujjatlarni qabul qilib olgan sanaga.

13.5. Sharhnomada ikki nusxada o'zbek tilida tuzilgan, har bir tomonda bittadan asl nusxada saqlanadi.

13.6. Ushbu Sharhnomada ko'zda tutilganidan tashqari barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

### **14. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

14.1. Ushbu sharhnomada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va \_\_\_\_\_ -yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

**15. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI**

**“BUYURTMACHI”:**

**“IJROCHI”:**

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK  
Yuridik manzili: Toshkent sh.,  
Mirzo Ulug‘bek tumani, Do‘rmon yo‘li  
ko‘chasi, 31-uy  
h/r: 2021 0000 4009 5333 9007  
AT «Aloqa Bank»  
MFO: 00 401 STIR: 305 907 639  
Telefon: 71-203-55-11

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

\_\_\_\_\_ -yil “\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

\_\_\_\_\_ -yil “\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ -son shartnomaga 1-ilova

\_\_\_\_\_ -yil “\_\_” \_\_\_\_\_

### **Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflarga muvofiq narxlarni kelishish bayonnomasi**

Buyurtmachi nomidan \_\_\_\_\_, Ijrochi nomidan - “Kiberxavfsizlik markazi” DUK direktori \_\_\_\_\_ -yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -son shartnomaga bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishda quyidagi narxlarni qo‘llanish to‘g‘risida kelishib oldilar:

<b>Amalga oshiriladigan ishlar hajmi</b>		<b>Ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan vaqt (soat hisobida)</b>
1.	Ekspertiza obyekti to‘g‘risida texnik ma’lumotlar yig‘ish.	
2.	Mobil ilovani ishslash mexanizmini o‘rganish, yig‘ilgan ma’lumotlar tahlili, funksional vazifalari va shu kabilar.	
3.	Mobil ilova dasturiy kodlarini maxsus dasturiy ta’minotlar va mutaxassis tomonidan tahlili.	
4.	Mobil ilovani maxsus muhitlarda o‘rnatish orqali funksional imkoniyatlarida zaifliklar mavjudligini o‘rganish.	
5.	Mobil ilova va u bilan bog‘liq resurslarga kiberxavfsizlik hujumlarini amalga oshirish imkoniyatini o‘rganish.	
6.	Zaifliklarni sinov tariqasida ekspluatatsiya qilib ko‘rish va zaiflikning xavflilik darajasini aniqlash.	
7.	Ekspertiza natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.	
<b>Jami ish soati</b>		

Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizasi uchun shartnomaga narxi \_\_\_\_\_ (*so‘z bilan yoziladi*) so‘m, shu jumladan QQS. Xizmat ko‘rsatishning umumiyligi vaqtini \_\_\_\_\_ soat.

Ushbu hujjat shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib, Buyurtmachi va Ijrochi o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**“BUYuRTMAChI”:**

**“IJROChI”:**

«Kiberxavfsizlik markazi» DUK  
Yuridik manzili: Toshkent sh.,  
Mirzo Ulug‘bek tumani,  
Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 31-uy  
h/r: 2021 0000 4009 5333 9007  
AT «Aloqa Bank»  
MFO: 00 401 STIR: 305 907 639  
Telefon: 71-203-55-11

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

\_\_\_\_\_ F.I.Sh.

\_\_\_\_\_ -yil “\_\_” \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ -yil “\_\_” \_\_\_\_\_

“Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza” xizmatini ko‘rsatish reglamentiga 3-ilova.

**“Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza” xizmatini ko‘rsatish tartibi**

<b>Bosqichlar</b>	<b>Ishtirokchilar</b>	<b>Tadbirlar</b>	<b>Muddat</b>
1-bosqich	Ariza beruvchi	Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni taqdim etish*	Murojaatga ko‘ra
2-bosqich	Markaz	Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning to‘liqligini tekshirish, shuningdek kelishish uchun shartnoma yuborish	3 ish kuni
3-bosqich	Ariza beruvchi va Markaz	Shartnoma tuzish	Kelishuvga asosan
4-bosqich	Markaz	Mobil ilovani axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish**	Shartnomaga asosan
5-bosqich	Markaz	Aniqlangan zaiflik va kamchiliklar bo‘yicha hisobot tayyorlash va yuborish	Shartnomaga asosan
6-bosqich	Markaz va ariza beruvchi	Bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolash	Shartnomaga asosan
7-bosqich	Ariza beruvchi	Aniqlangan zaiflik va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ishlarni olib borish, shuningdek qayta ekspertizaga yuborish	15 ish kuni mobaynida
8-bosqich	Markaz	Soddalashtirilgan sxema asosida qayta ekspertizadan o‘tkazish***	10 ish kuni mobaynida
9-bosqich	Markaz	Ekspertiza xulosasini tayyorlash va yuborish	3 ish kuni mobaynida

*Izoh:*

\*Mobil ilovani invertarizatsiyadan o‘tkazish xesh qiymatlari orqali raqamlash asosida bajariladi. Invertarizatsiya faylining xesh qiymati bu faylning haqiqiy va to‘liq ekanligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

**\*\*Zaifliklar va kamchiliklar aniqlanmagan holatda 5, 7 va 8-bosqichlar qo'llanilmaydi.**

**\*\*\*Qayta ekspertizadan so'ng aniqlangan zaiflik va kamchiliklar bartaraf etilganlik holati aniqlanganda, ekspertiza xulosasi taqdim etiladi. Aks holda, keyingi ekspertiza yangi tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.**